



**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY TA’LIM, FAN VA
INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI ANDIJON DAVLAT
CHET TILLARI INSTITUTI REKTORI**

U.U.Raxmanov

2.Belgilangan tartibda ijrosi ta'minlansin

U.U.Raxmanov
A.M.G‘oyibberdiyev
N.B.Bobajonov

4.Belgilangan tartibda ijrosi ta'minlansin

Muddat: 2025-yil 31-mart

№№6/74
27 Fevral 2025

D.A.Rustamov
Rektor





O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIY TA’LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRINING
BUYRUG‘I

2025-yil «26» fevral

80-son

Toshkent shahri

**Talaba va o‘quvchilar o‘rtasida “Kitobxon yoshlar ligasi”
onlayn kitobxonlik tanlovini tashkil etish va o‘tkazish to‘g‘risida**

Vazirlar Mahkamasining “O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Talaba va o‘quvchilarning ijtimoiy faolligini oshirish markazi faoliyati samaradorligini oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida” 2024-yil 20-yanvardagi 36-son qarori 2-ilovasi bilan tasdiqlangan chora-tadbirlar dasturining 14-bandida belgilangan vazifalar ijrosini ta’minlash, shuningdek, talaba va o‘quvchilarning darsdan bo‘sh vaqtlarini mazmunli tashkil etish, ma’naviy ongini rivojlantirish, kitobxonlikni keng ommalashtirish maqsadida

BUYURAMAN:

1. Talaba va o‘quvchilar o‘rtasida **“Kitobxon yoshlar ligasi”** onlayn kitobxonlik tanlovini (keyingi o‘rinlarda – Tanlov) 2025-yildan boshlab har chorakda bir marta doimiy o‘tkazilib borilsin.

2. Quyidagilar:

talaba va o‘quvchilar o‘rtasida o‘tkaziladigan “Kitobxon yoshlar ligasi” onlayn kitobxonlik tanlovini o‘tkazish Nizomi **1-ilovaga** muvofiq;

“Kitobxon yoshlar ligasi” onlayn kitobxonlik tanlovini o‘tkazish bo‘yicha Tashkiliy ishchi guruh tarkibi **2-ilovaga** muvofiq;

talaba va o‘quvchilar o‘rtasida “Kitobxon yoshlar ligasi” respublika tanlovining g‘oliblarini taqdirlash marosimi bilan bog‘liq yillik xarajatlar smetasi **3-ilovaga** muvofiq tasdiqlansin.

3. Yoshlar siyosati va ma’naviy-tarbiyaviy ishlar boshqarmasi (N. Kasimov), **Talaba va o‘quvchilarning ijtimoiy faolligini oshirish markazi** (A. Akramov):

Tanlovni tashkil etish bilan bog‘liq barcha tashkiliy ishlarni amalga oshirsin hamda Tanlovni nizom talablari asosida o‘z vaqtida yuqori saviyada o‘tkazishni ta’minlasin.

4. Oliy ta’lim muassasalari rektorlari va filial direktorlari:

tanlovda oliy ta'lim tizimida tahsil olayotgan ixtiyoriy ravishda ishtirok etish istagini bildirgan talaba-yoshlarning o'z iqtidorini namoyon qilishiga sharoit yaratsin;

talaba va o'quvchilar o'rtasida tanlovning mazmun-mohiyatini keng targ'ib qilish maqsadida ta'lim muassasasining veb-sayti va ijtimoiy tarmoqlardagi sahifalarida tanlov haqida materiallar berib borsin;

har bir hududdagi yetakchi oliy ta'lim muassasasi tanlovning final bosqichini tanlov nizomi asosida, markazlashgan formatda yuqori saviyada tashkil etsin hamda adolatli va shaffof o'tishini ta'minlasin;

tanlovda g'olib va sovrindor bo'lgan talabalarni taqdirlash marosimida ishtirok etishlari uchun sharoit yaratsin, ishtirokchining taqdirlash marosimida ishtirok etishi bilan bog'liq barcha xarajatlar oliy ta'lim muassasasining budjetdan tashqari mablag'lari hisobidan qoplansin.

5. Moliya-iqtisodiyot va infratuzilmani rivojlantirish boshqarmasi (J. Xalilov) Talaba va o'quvchilar o'rtasida o'tkaziladigan "Kitobxon yoshlar ligasi" onlayn kitobxonlik tanlovining g'olib va sovrindorlarini taqdirlash bilan bog'liq xarajatlar 3-ilovadagi dastlabki xarajatlar smetasiga muvofiq, vazirlikning oliy ta'lim muassasalarini rivojlantirish jamg'armasi mablag'lari hisobidan, Talaba va o'quvchilarning ijtimoiy faolligini oshirish markazining g'aznachilik shaxsiy hisob raqamiga belgilangan tartibda ajratilishini ta'minlasin.

6. Mazkur buyruq ijrosi nazorati vazir o'rinbosari S. Buzrukxonov zimmasiga yuklansin.

Vazir



K. Sharipov



Hujjat haqiqiylikini mobil qurilma yordamida QR- kodni skaner qilish orqali tekshirish mumkin